

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.10/2025.27.12.T.01.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK IMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**SAIDOV DOSTON NURIDDIN O‘G‘LI**

**KORXONALARDA MEHNAT MUHOFAZASINI TASHKIL ETISH  
VA OPERATIV BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHGA DOIR MA'LUMOTLARNI YIG'ISH  
AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

**05.10.01 – “Mehnatni muhofaza qilish va inson faoliyati xavfsizligi”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2026**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor  
of philosophy (PhD) on technical sciences**

**Saidov Doston Nuriddin o‘g‘li**

Korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir ma’lumotlarni yig‘ish axborot tizimini ishlab chiqish .....3

**Саидов Достон Нуриддин угли**

Разработка информационной системы сбора данных для повышения эффективности организации и оперативного управления охраной труда на предприятиях .....21

**Saidov Doston Nuriddin ugli**

Development of an information system for data collection to improve the efficiency of occupational safety organization and operational management in enterprises.....40

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 44

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.10/2025.27.12.T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK IMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**SAIDOV DOSTON NURIDDIN O‘G‘LI**

**KORXONALARDA MEHNAT MUHOFAZASINI TASHKIL ETISH VA  
OPERATIV BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA  
DOIR MA‘LUMOTLARNI YIG‘ISH AXBOROT TIZIMINI ISHLAB  
CHIQISH**

**05.10.01 – “Mehnatni muhofaza qilish va inson faoliyati xavfsizligi”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4982 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz)) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sulaymanov Sunnatulla**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Siddikov Ilxomjon Xakimovich**  
texnika fanlari doktori DSc, professor

**Atabayev Kaxramon Alber o‘g‘li**  
O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni  
qisqartirish va bandlik vazirligi bosh mutaxassisi,  
PhD, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy  
tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.10/2025.27.12.T.01.03 raqamli Ilmiy kengashning **2026-yil «13» mart** soat **15<sup>00</sup>** dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 2. Tel.: (+99871) 299-00-01; faks: (+99871) 293-57-54; e-mail: [rektorat@tstu.uz](mailto:rektorat@tstu.uz), [tashiit@exat.uz](mailto:tashiit@exat.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (322 – raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 2. Tel.: (+99871) 299-05-66).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «20» fevral kuni tarqatildi.  
(2026 yil «19» fevraldagi № 2 raqamli reyestr bayonnomasi).

**R. V. Raximov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor,

**Y.O. Ruzmetov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**R. S. Razikov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.n., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda raqamli transformatsiya jarayonlari va ishlab chiqarishning uzluksiz avtomatik nazorati hamda holatini kuzatish tizimlari jadal rivojlanayotgan bir sharoitda, korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etish va uni operativ boshqarish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalariga asoslangan yechimlar asosiy o‘rin egallamoqda. So‘nggi yillarda sanoat va transport sohaslarida ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, texnologik uskunalarning sonining ortishi hamda inson omilining xavfsizlikka ta‘siri kuchayib borayotgani sababli mehnat muhofazasini tashkil etish va uni boshqarish masalalari alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 3 milliondan ortiq kishi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar oqibatida vafot etmoqda<sup>1</sup>. Bu esa mehnat muhofazasi sohasida an‘anaviy boshqaruv usullari yetarli emasligini, zamonaviy raqamli va intellektual axborot tizimlariga asoslangan yondashuvlarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasini raqamli asosda rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-texnik tadqiqotlar tizimli ravishda olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishda mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqarish jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish, ma‘lumotlarni onlayn yig‘ish va monitoring qilishga mo‘ljallangan axborot tizimlarini joriy etish, shuningdek xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ish muhitining mikroiklimi, shovqin, chang va tebranish kabi omillarni baholash, jarayonlarni avtomatlashtirish, ichki auditlar, samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini raqamlashtirish orqali mehnat muhofazasini boshqarish tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, xodimlarning ergonomik mehnat sharoitlarini ta‘minlash, ularni xavfsizlik bo‘yicha o‘qitish jarayonlarini tizimlashtirish hamda ishlab chiqarish risklarini oldini olish va tahlil qilishga yo‘naltirilgan dasturiy vositalarni qo‘llash ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiradi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda korxonada darajasida ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va operativ boshqaruvni ta‘minlaydigan yagona axborot tizimini ishlab chiqish, xavf manbalarini aniqlash va risklarni baholash jarayonlarini integratsiyalashgan platforma asosida boshqarish, shuningdek mehnat muhofazasini boshqarish tizimini xalqaro ISO 45001:2018 standarti talablari bilan uyg‘unlashtirish hamda ushbu tizimning texnik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-texnik vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda korxonalarda mehnat muhofazasi xizmatlari faoliyatini takomillashtirish, xodimlar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, ijobiy amaliy natijalar qayd etilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “Sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini

<sup>1</sup> <https://www.ilo.org/resource/news/nearly-3-million-people-die-work-related-accidents-and-diseases>

oshirish dasturlarini keng joriy qilish ..., sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini va maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish"<sup>2</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni samarali bajarishda, jumladan korxonalarda mehnatni muhofaza qilish jarayonlarida ma'lumotlarni yig'ish va operativ boshqaruv tizimini joriy etish, xavf manbalarini aniqlash, risklarni baholash va kamaytirish hamda qulay va xavfsiz mehnat muhitini shakllantirish bilan bir qatorda, korxonalar uchun xos bo'lgan texnologik, tashkiliy va inson omillarining o'zaro bog'liqligini inobatga olgan holda ilmiy asoslangan axborot tizimi yechimlarini ishlab chiqish, ma'lumotlarni onlayn yig'ish, risklarni prognozlash, profilaktik choralarini tezkor joriy etish va resurslarni oqilona taqsimlash imkonini berib, mehnat muhofazasi hamda operativ boshqaruv samaradorligini barqaror oshirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni, 2023-yil 10-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-son, 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4422-son, 2020-yil 10-iyuldagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-iyuldagi "Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 454-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "II. Mehnat unumdorligini oshirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqaruvga oid ilmiy tadqiqotlarning natijalarining tahlili O'zbekistonda ham, chet elda ham dolzarbdir. Bu muammoni hal qilishda turli davrlarda L.V. Ptushkina, V.A. Ulyanov, A. Kosyakin, S.A. Prichepova, S.V. Zakharov, A.M. Koroloeva, Yu.N. Kanonin, T.I. Makeyeva, N.M. Jolobov, I.L. Popov, S.N. Radionov, I.G. Hamanov, S.A. Solod, P. Hasle, Ch.U. Madsen, D. Hansen, J.I. Idrisova, V.N. Myasnikov, A.I. Uljanov, N.V. Belina, S.S. Timofeeva, K.V. Chumakov, S.N. Solovyov, Van der T.W. Schaaf,

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

J.L. Rouvroye, D.A. Autenrieth, E.C. Chenhall, S. Muley, A.M. Zavyalov, Y.V. Gvozdev, A. Bochkovskiy, N. Sapozhnikova, V. Gogunskii, M. Hrytsaienko, Y. Rogach, M. Zorya va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu yo‘nalishda respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarida umumiy mehnatni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar S.S. Sulaymanov, Z.Sh. Tursunov, O.T. Aliyev, X.M. Kamilov, M.M. Talipov, Sh.M. Narziyev, V.A. Rashidov, O.R. Yuldashev, S.H. Muradov, N.B. Gaipnazarova, Sh.M. Latibov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Biroq bu tadqiqotlarda ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir ma‘lumotlarni yig‘ish axborot tizimini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti “Mehnat muhofazasi ilmiy-tadqiqot markazi”ning 1195144-sonli “Xodimlar attestatsiyasi” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** korxonalarda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish samaradorligini oshirishga doir operativ ma‘lumotlarini yig‘ish axborot tizimini ishlab chiqish orqali mehnat xavfsizligini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish;

“Inson – texnika – muhit” tizimida mehnat muhofazasi xizmati xodimining axborotni qayta ishlash imkoniyatlarini baholash asosida funksional yuklamani aniqlash va imkoniyatlarini baholash usulini ishlab chiqish;

mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv jarayonlarida vujudga keladigan xavf omillarining ehtimollarini baholash hamda baxtsiz hodisalar sodir bo‘lish ehtimolini prognozlash uchun Markov zanjirlari asosida ishlovchi axborot texnologiyasi tuzilmasini ishlab chiqish, uning algoritmlarini yaratish va ishlab chiqarish jarayonlari uchun ssenariy modellarini shakllantirish;

mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqaruv tizimi xodimining samarali faoliyatini ta‘minlashga xizmat qiluvchi axborot tizimlari asosida operativ boshqaruv jarayonidagi xavflarni baholash va tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan optimallashtirilgan konseptual modelni ishlab chiqish va uning funksional tarkibini asoslash;

mehnat muhofazasini operativ boshqaruv tizimining axborot texnologiyasi tuzilmasini, elektron platformasi interfeysini texnik imkoniyatlarini baholash va ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining Harakat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamenti mehnat muhofazasi xizmatini boshqaruvi bo‘yicha operativ ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash va hisobot berish jarayonlarini baholash mezonlari.

**Tadqiqot predmeti** mehnat muhofazasi xizmatini boshqaruvi bo‘yicha

operativ ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni raqamlashtirishga yo'naltirilgan innovatsion-texnik axborot tizimida mehnat xavsizligi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimli, omilli, normativ-huquqiy tahlil, matematik statistika va modellashtirish, ehtimollar nazariyasi, regression tahlil, ekspert va dasturiy modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“Inson – texnika – muhit” tizimi doirasida mehnat muhofazasi xizmati xodimining axborotni qabul qilish, qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlarini tavsiflovchi matematik model ishlab chiqilgan hamda ushbu model asosida xodimning funksional yuklamasini miqdoriy aniqlash va baholash usuli taklif etilgan;

ehtimollar nazariyasiga asoslangan Markov zanjiri matematik modeli mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv jarayonlariga moslashtirilgan hamda ushbu model asosida ishlab chiqarishdagi xavfli holatlar, yaqin hodisalar va baxtsiz hodisalar o'rtasidagi o'tish ehtimollarini baholash imkonini beruvchi axborot texnologiyasi tuzilmasi ishlab chiqilgan;

mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqaruv tizimida operativ boshqaruv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida xavflarni aniqlash, baholash va tahlil qilish bosqichlarini yagona axborot konturida birlashtiruvchi optimallashtirilgan konseptual model ishlab chiqilgan;

risklarni raqamli baholash natijalari asosida mehnat muhofazasini operativ boshqarish platformasining texnik ishlash ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kompleks baholash imkonini beruvchi yangi metodik yondashuv ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari**

mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimida insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qaror qabul qilish tezligini hisoblash algoritmlari va dasturiy majmualar ko'rinishidagi instrumental vositalari ishlab chiqilgan;

ehtimollar nazariyasi asosida ishlab chiqilgan tizim arxitekturasi mehnat muhofazasi jarayonlarida onlayn monitoring, taxminiy tahlil va xavflarni baholash imkonini beruvchi integrallashgan boshqaruv muhitini taqdim etgan;

yangi axborot tizimi korxonalarda mavjud barcha xavflar bo'yicha onlayn ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va hisobot shaklida taqdim etish imkonini yaratib, mehnat muhofazasi hamda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiq etilgan korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir masalalar bo'yicha korxonalarda olingan natijalar hamda ularning o'zaro muvofiqligi, tadqiqotning zamonaviy uslub va usullar asosida olib borilganligi, aprotatsiya jarayonlarining ijobiy natija bergani, shuningdek ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “inson – texnika – muhit” tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiluvchi, mehnat muhofazasi xodimining axborotni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini miqdoriy baholashga asoslangan yangi yondashuv ishlab chiqilganligi, mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimi

uchun yaratilgan axborot texnologiyasi Markov zanjiri asosida modellashtirilganligi hamda tizim doirasida ishlab chiqilgan kontseptual model mehnat muhofazasining axborot bilan boshqarilishini ilmiy asoslash imkonini berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xavflarni onlayn monitoring qilish va ma'lumotlarni yig'ish imkoniyatining yaratilishi, axborot texnologiyalarini joriy etish orqali mehnat muhofazasi hamda boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilishi, bu jarayonning ishlab chiqarishdagi nuqsonlarni operativ aniqlashga xizmat qilishi, shuningdek yaratilgan tizim yordamida boshqaruvchilarning xodimlar bilan samarali muloqotini yo'lga qo'yilishi hamda ishlab chiqarishdagi kamchiliklarni tezkor aniqlash jarayonini sezilarli darajada soddalashtirgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir ma'lumotlarni yig'ish axborot tizimini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mehnat muhofazasini operativ boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish hamda mehnat muhofazasi xizmati xodimining funksional yuklamasini aniqlash va baholash usuli "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining Harakat xavfsizligi va mehnat muhofazasi nazorati departamenti faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 4/E-1291-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mehnat muhofazasini raqamlashtirishga yo'naltirilgan axborot texnologiyasini joriy etish hisobiga yillik iqtisodiy samaradorlik 371,45 mln so'mni tashkil etgan;

mehnat muhofazasi xizmatini boshqaruv jarayonida xavflarni baholash va tahlil qilishga doir optimallashtirilgan konseptual model, operativ boshqaruv tuzilmasi va elektron platformasidan foydalanish uchun texnik imkoniyatlarini baholash usuli hamda insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qaror qabul qilish tezligini aniqlashga xizmat qiluvchi dastur "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining Harakat xavfsizligi va mehnat muhofazasi nazorati departamenti faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 4/E-1291-sonli ma'lumotnomasi). Natijada vazifalarni bajarish tezligi 35 foizga oshgan.

**Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 5 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarida nashr etilgan, 1 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 104 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ilmiy-amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan tajriba-sinov natijalarning ilmiy va amaliy aprabatsiyasi, nashr etilgan ishlar ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqotlarning natijalari tahlili, maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy adabiyot ma‘lumotlari asosida mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqaruv sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Unda ishlab chiqarish korxonalarida yuz berayotgan baxtsiz hodisalar, ularning iqtisodiy oqibatlari va jabrlangan xodimlarga berilgan tovon to‘lovlari haqida ma‘lumotlar berilgan, mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqaruv tizimlarining zamonaviy ishlab chiqarishdagi roli, tuzilmasi va funksional jihatlarini keng yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir tezkor axborot tizimini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektining tanlanishi va uning asoslanishi, mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimining axborot texnologiyasi tuzilmasini yaratilish qismi, mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv axborot texnologiyasi interfeysini yaratish bo‘yicha nazariy tahlili, mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv axborot texnologiyasini ishlash prinsipi va imkoniyatlari sharhi aks ettirilgan.

Mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimining axborot texnologiyasi tuzilmasi ishlab chiqildi, bunda **“inson–texnika–muhit”** konsepsiyasiga asoslangan uzluksiz ma‘lumot yig‘ish, qayta ishlash va xavflarni baholash modullari integratsiyalashgan holda taklif etildi. Ushbu tuzilma boshqaruv jarayonlarining real vaqt rejimida kuzatilishi, jarohatlar xavfini prognozlash va boshqaruv qarorlarini tezlashtirishga imkon yaratdi.

Mehnat muhofazasi bo‘yicha operativ boshqaruvning axborot aylanishi aks etgan bo‘lib, u ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, foydalanuvchiga uzatish va qaror qabul qilish bosqichlaridan iborat. Ushbu ketma-ketlik axborot oqimining uzluksizligini ta‘minlaydi hamda boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirdi (1-rasm).


Mazkur jarayon modeli axborotning dastlabki yig‘ilishidan boshlab, uni qayta ishlash, tahlil qilingan holda mas‘ul foydalanuvchilarga yetkazish va yakunda boshqaruv qarorlarini qabul qilishgacha bo‘lgan uzluksiz axborot oqimini aks ettiradi.



**1-rasm. Operativ boshqaruv operatsion texnologiyasi modeli**

Birinchi bosqichda korxonadagi xavf manbalari, hodisalar va o‘lchovlar bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar to‘plandi. Ikkinchi bosqichda ushbu axborotlar strukturaviy ko‘rinishga keltiriladi, filtrlab chiqiladi va tahlil qilinadi. Uchinchida qayta ishlangan ma’lumotlar elektron platforma orqali rahbariyat yoki mas’ul xodimlarga uzatiladi. So‘nggi bosqichda esa ushbu ma’lumotlar asosida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan boshqaruv qarorlari shakllantiriladi. Ushbu to‘rt bosqichli mexanizm mehnat muhofazasini operativ boshqarishda axborotning samarali oqimini ta’minlab, tizimning uzluksiz ishlashini kafolatlaydi.

Axborot texnologiyasining ishlash prinsipi va algoritmlari ishlab chiqildi, Markov zanjiri asosida xavf darajalarining o‘zgarishi modellashtirildi, xodimlarning funksional yuklamasi baholanib, ma’lumot uzatish ketma-ketligi strukturalashtirildi. Tizimning ishlash jarayoni — xabar kelishi, qayta ishlanishi, baholanishi, profilaktik topshiriq shakllanishi va hisobotga aylanishi blok-sxema tarzida matematik asos bilan yoritildi (2-rasm).



**2-rasm. “Inson–texnika–muhit” tizimi asosida mehnat muhofazasi xodimining axborot yuklamasini baholash algoritmi**

Blok-sxema mehnat muhofazasi xodimining ma’lum vaqt oralig‘ida kelib tushadigan axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va ularga nisbatan qarorlar qabul qilish qobiliyatini matematik modellashtirdi. Ushbu algoritm kiruvchi axborot oqimi intensivligi, xodimning real qabul qilish imkoniyati, ishlov berish tezligi va tizimning umumiy o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlarini solishtirish orqali funksional yuklama me’yorlarini aniqlangan. Modelda axborot oqimining tartibsiz kelish

ehtimoli, vazifalarning ustma-ust tushishi va xodimning charchoq koeffitsienti ham hisobga olinib, mehnat muhofazasi xizmatining optimal ishlash holati baholandi.

Natijada, blok-sxema individual xodim-ning ortiqcha yuklanish xavfini oldindan aniq-lashga, jarayonlarni qayta taqsimlashga va boshqaruv qarorlarini optimallashti-rishga xizmat qildi.

Python dasturi yor-damida Mehnat muhofaza-sini tashkil etish va bosh-qaruv jarayonlarining algo-ritmik modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelni ishga tushirish uchun EHMda oldindan Python dasturi va Jupyter Note-book (.ipynb) platformasi o'rnatilgan bo'lishi talab etildi.

Windows operatsion tizimida Jupyter Notebook platformasini ishga tushirish tartibi quyidagicha:

*Win + R* tugmalarini bosib, cmd (Command Prompt) oynasi ochildi.

Oynaga "jupyter notebook" buyrug'i kiritiladi va Enter tugmasi bosildi.

Brauzerda Jupyter Notebook interfeysi avtomatik tarzda ishga tushadi. Platformaning rasmdagi qismidan Python3 qismi tanlanadi. Ushbu olinadigan natijani Ehtimollar nazariyasi kursining Markov zanjiri asosida ishlangan qismining ketma-ketligini birma-bir tadqiqotda tasvirlanadi. Unga ko'ra, jarayonni yopiq boshqaruv sikl (A-G)asosida formulasini qo'yib chiqiladi. Har bir qadamni A dan G gacha bo'lgan bosh lotin harflari bilan belgilab olindi.

A – siyosat, ya'ni korxonada mehnat muhofazasi siyosati va yillik maqsadlarini belgilaydi; B – risk aniqlash/baholash, ya'ni ish joylaridagi xavf manbalarini aniqlash va riskni baholash; C – me'yoriy-huquqiy moslik, ya'ni me'yoriy-huquqiy moslikni ta'minlash (yo'riqnoma, ruxsatnoma, hujjatlar); D – o'qitish/yo'riqnoma (xodimlarni o'qitish); E – monitoring/nazorat (o'lchovlar, kuzatuv, ichki audit va ko'rsatkichlarni tahlil qilish); F – favqulodda tayyorgarlik/javob, agar kerak bo'lsa, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik/javob choralari ishga tushadi; G – takomillashtirish deb nomlandi ya'ni, olingan natijalar asosida takomillashtirish (reja, resurs, tartiblarni yangilash) va yana A ga qaytib, sikl yangilanadi.

$$MMB_{t+1} = G \triangleright F \triangleright R \triangleright D \triangleright C \triangleright B \triangleright A(MMB_t) \quad (1)$$

bunda  $\triangleright$ -bosqichlarning ketma-ket qo'llanishi;

$(MMB_t)$ -mehnat muhofazasi boshqaruvining t-davrdagi holati.

Ushbu bosqichlarning ketma-ketligi ortidan, boshlang'ich ehtimol ( $R_0$ ) hisoblanadi. Avvalo, har bir xavf  $i$  uchun risk  $p_i$  va oqibat og'irligi  $s_i$  baholanadi. Barchasi yig'ilib boshlang'ich risk olinadi:

$$R_0 = \sum_{i=1}^n p_i \cdot s_i \quad (2)$$

Joriy etilgan nazorat choralarning samaradorligi  $e_k$  (0 dan 1 gacha) deb olinadi. Qoldiq risk:

$$R_{risk} = R_0 \cdot \prod_{k \in K} (1 - e_k) \quad (3)$$

Joriy etilgan nazorat choralarning samaradorligi ko'paygani sari  $R_{risk}$  pasayadi. Qaror natijasini olish uchun so'nggi G (takomillashtirish) bosqichi bilan solishtirish lozim bo'ladi. Buning uchun Agar  $R_{risk} > R_{oxirgi}$  bo'lsa, F bosqichi kuchaytiriladi, navbat G bosqichga keladi. Aks holda to'g'ridan-to'g'ri G ga va keyin A bosqichga qaytiladi.

Endi esa, samaradorlik indeksi (SI) hisoblanadi, buning uchun esa bosh ko'rsatkichlarni (jarohatlanish chastotasi JCH, yo'qotilgan ish kuni YIK, me'yoriy

moslik MM, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish OVB, me‘yor oshish MO) 0–1 oraliqda normallashtirib, vaznlar  $w_j$  bilan birlashtiriladi:

$$SI = w_1 \cdot \left(1 - \frac{JCH}{JCH_r}\right) + w_2 \cdot \left(1 - \frac{YIK}{YIK_r}\right) + w_3 \cdot MM + w_4 \cdot OVB - w_5 \cdot MO \quad (4)$$

bunda  $\sum w_j = 1$ . SI qancha yuqori bo‘lsa, tizim shuncha samarali hisoblanadi.

Boshqaruv sikli doimiy  $A \rightarrow B \rightarrow (CAD) \rightarrow E \rightarrow [shart] \rightarrow G \rightarrow A$  shaklda davom etadi. Agarda  $R_{risk}$  kamaytirilsa, SI ko‘rsatkichlar ko‘payadi va jarayon yana qayta boshlanadi doimiy takomillashtirish davomida ishlaydi.

Ushbu formulalar asosida yaratilgan chizma korxonalarda mehnat muhofazasini uzluksiz yaxshilashga yo‘naltirilgan rejalashtirish – bajarish – tekshirish – harakat (PDCA) siklini tizimli ko‘rinishda ifodalaydi. Model mehnat muhofazasi boshqaruvining mantiqiy bosqichlarini, ular o‘rtasidagi sabab-natija bog‘liqliklarini va qayta aloqa mexanizmlarini ko‘rsatadi. Konseptual model amaldagi normativ-huquqiy talablar (Mehnat kodeksi, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, texnik jihatdan tartibga solish hujjatlari) hamda ISO 45001 tamoyillariga uyg‘un bo‘lib, rahbariyat majburiyatlari, resurslarni taqsimlash va tavakkalni boshqarish jarayonlarini yagona siklga birlashtirdi (3-rasm).



**3-rasm. Mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan konseptual jarayon modeli (uzluksiz chiziqlar – asosiy oqim, uzilgan chiziqlar – qayta aloqa/takomillashtirish)**

Rasmda mehnat muhofazasini boshqarish jarayonining PDCA tamoyili asosidagi bosqichlari aks ettirilgan. Model mehnat muhofazasi siyosatini rejalashtirishdan boshlab, amaliyotga tatbiq etish, monitoring qilish va tizimni takomillashtirishgacha bo‘lgan uzluksiz siklni ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv

xavfsizlik darajasining doimiy ravishda oshirib borilishini ta'minlaydi.

Axborot texnologiyasining konseptual modeli takomillashtirildi, ya'ni tizimning funksional bloklari – monitoring, audit, risklarni baholash, hisobot, bildirishnoma, profilaktik topshiriqlar va KPI bo'limlari o'zaro bog'langan yagona boshqaruv mexanizmiga birlashtirildi. Modelning har bir bo'lagi uchun kiruvchi-chiqish ma'lumotlari, jarayonlar ketma-ketligi va ulanish strukturalari aniq belgilandi. Tizim foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ishchilar haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlaydi, xavfsizlik bo'yicha test natijalarini baholaydi va har bir ishchi uchun xavf darajasini aniqlaydi. Natijalar asosida umumiy hisobot shakllantirildi. Bu hisobot rahbarlarga xavfsizlik bo'yicha holatni operativ baholash va muammoli sohalarni aniqlash imkonini berdi.

Xavfsizlik reytingi asosida mehnat muhofazasini baholashning Markov zanjiriga asosan, ishchi ining joriy davrdagi xavfsizlik reytingi  $S_i(t) \in [0,100]$  bo'lsin. Reytingdan diskret xavf holatiga deterministik tasniflash qo'llandi:

$$X_i(t) = \begin{cases} Y & \text{agar } S_i(t) < 50 \text{ (yuqori risk)} \\ U & \text{agar } 50 \leq S_i(t) < 80 \text{ (o'rtacha risk)} \\ H & \text{agar } S_i(t) \geq 80 \text{ (xavfsiz)} \end{cases} \quad (5)$$

bunda Y, U, H-mos ravishda “Yuqori”, “O'rtacha”, “Xavfsiz” toifalaridir. Kuzatuv davrlari  $t=0,1,2,\dots$  bo'lib, har davr oxirida reyting yangilanadi va toifa qayta belgilandi.


Treninglar, yo'riqnomalar, shaxsiy himoya vositalari ta'minoti va monitoring kuchayishi **boshqaruv omillari ta'sirini** odatda  $\alpha, \delta, \beta$  ni oshiradi;  $\gamma, \varepsilon, \theta$  ni kamaytiradi. Zarurat bo'lsa, ehtimollarni vaqtga bog'liq  $p_{ij}(t)$  sifatida olish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishlab chiqarishdagi xavfsizlik jarayonlari ergodik jarayon sifatida qaralishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, tizimning boshlang'ich holatidan qat'i nazar, vaqt o'tishi bilan u statsionar ehtimollik taqsimotiga ega bo'ladi. Statsionar taqsimot korxonada faoliyatida xavfsiz, o'rta xavfli va yuqori xavfli holatlarning uzoq muddatli nisbatini ifodaladi. Shu orqali “inson – texnika – muhit” tizimi asosida ishlab chiqilgan model yordamida xavfsizlik darajalarini prognoz qilish, mehnat jarohatlari chastotasini kamaytirish va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkoniyati yaratildi.

Axborot texnologiyasi interfeysini yaratish bo'yicha nazariy tahlil bajarildi, bunda foydalanuvchi uchun qulay boshqaruv paneli, xavf ko'rsatkichlari vizualizatsiyasi, interaktiv grafiklar, tezkor xabarnomalar tizimi hamda audit natijalarini aks ettiruvchi modullar loyihalashtirildi. Interfeysning ergonomikasi, mantiqiy tarkibi va ma'lumotlarni tez qabul qilishga moslashuvchanligi ham ilmiy asosda ko'rsatildi.

4-rasm korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir ma'lumotlarni yig'ish axborot tizimiga kirish uchun login va parolni kiritish orqali yoki ID kartasini skaner qilish orqali kirish mumkin bo'ladi. 2.7-rasmda 1.1-login orqali kirish qanday amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Interfeysda 1.3 ga login kiritiladi, 1.4 ga esa parol kiritiladi. 1.5 orqali to'g'ri kiritilgan taqdirda Kirish tugmasini bosish orqali kirish mumkin. Kirish sahifasida 1.6 tugma orqali tilni o'zgartirib olish mumkin, tizimga 3 xil til kiritilgan.

Ular ingliz, rus va o‘zbek tillari.



**4-rasm. Korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etish va operativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir ma'lumotlarni yig'ish axborot tizimiga login orqali kirish qismi 1 – login va parol; 2 – ID karta; 3 – login; 4 – parol; 5 – kirish; 6 – til.**



**5-rasm. Login yoki ID karta orqali kirilganda ochiladigan oyna 1 – tizimning nomi; 2 – tizimning 4 moduli; 3 – boshqaruv menyusi**

Ishlab chiqarish korxonalarida foydalaniladigan bu tizim ishchilarning axborot tizimidan foydalanish qobiliyatini oshirish uchun moslashtirilgan interfeys hisoblanadi. Uni yaratishda foydalanuvchi va qurilma yoki dastur o‘rtasidagi muloqotni ta’minlaydigan vizual va funksional elementlar to‘plamining barchasini hisobga olgan holda yaratilgan.

Axborot tizimlarining ishonchliligi va xavfsizligi foydalanuvchilarni to‘g‘ri aniqlash (autentifikatsiya) hamda ularning tizimdagi vakolatlarini nazorat qilish (avtorizatsiya) mexanizmlariga bevosita bog‘liq. Shu sababli, tizimga kirish jarayonida ikki bosqichli autentifikatsiya (Two-Factor Authentication – 2FA) mexanizmini joriy etiladi. Bu usul foydalanuvchining shaxsini tasdiqlashda nafaqat parol, balki qo‘shimcha xavfsizlik omili – masalan, mobil qurilmaga yuborilgan maxsus kod orqali ham tekshiruvni amalga oshiradi. Natijada, ruxsatsiz kirish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi.

5-rasmda Mehnat muhofazasini nazorat qilishga mo‘ljallangan bu modulda ishlab chiqilgan mobil ilova interfeysi korxonalarda mehnat muhofazasi talablarini bajarilishini nazorat qilish, xodimlarning shaxsiy ma’lumotlarini ko‘rish, jarimalarni rasmiylashtirish va ularning muddatlarini boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Va tizimga kirish uchun login va parolni terish orqali yoki ID kartani skaner qilish orqali kirilganda 5-rasmdagi oyna ochiladi. 3.1 da interfeysning nomi ko‘rinadi. Bu nomni korxonadagi mehnat muhofazasi bilan shug‘ullanadigan bo‘lim nomi o‘zgaradigan bo‘lsa, uni o‘zgartirish mumkin. 4.2 da bu tizimning

barcha elementlari ko'rsatilgan. Ular 1-korxonalar, 2-xodimlar, 3-raqamli sanoat xavfsizligi, 4-ekologiya, 5-maxsus kiyim bosh va poyabzal va 6-himoya vositalaridan iborat bo'ladi. 4.3 da esa interfeysning boshqaruv qismi mavjud bo'lib, u orqali User tugmasini bosish orqali xodimning umumiy ma'lumoti beriladi. Jadval orqali xodimning ish vaqti smenasini aniqlash mumkin. Jarimalar tugmasida esa xodimga yozilgan mehnat muhofazasini buzganligi haqidagi jarimalar haqida ma'lumot olish mumkin. Yo'riqnoma tugmasida xodimning o'z kasb faoliyatida zarur bo'lgan yo'riqnomalar kiritilgan. Sozlamalar orqali interfeysning ranggi, matn shrift kabi ma'lumotlar o'zgartirilishi mumkin. Ishlab chiqilgan tizim turli soha va ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish uchun moslashuvchan va adaptiv model sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, masalan, yirik zavodlar, kichik va o'rta korxonalar, qurilish maydonchalari, kimyo sanoati yoki transport sohalarining o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olib, ularga mos holda yaratilinishi mumkin.



**6-rasm. Korxonalar haqida ma'lumot**



**7-rasm. Jarimalar tarixi oynasi 1 – xodim F.I.Sh.; 2 – jarimalar tarixi; 3 – yashil talonli jarima; 4 – sariq talonli jarima.**

6-rasmda "Korxonalar" modulining ko'rinishi keltirilgan. Bu modul foydalanuvchiga korxonalar bo'yicha barcha muhim ma'lumotlarni tizimli tarzda ko'rsatadi, ya'ni "Korxonalar" moduli tashkilotlarning mehnat muhofazasi bo'yicha asosiy ma'lumotlarini saqlash va boshqarish uchun mo'ljallangan. Modul foydalanuvchilarga har bir korxonalar haqida korxonalar nomi (Tashkilotning to'liq rasmiy nomi (masalan: "Texno Qurilish MChJ"), INN (Soliq raqami – har bir korxonalariga biriktirilgan noyob identifikatsiya raqami, soliq idoralari tomonidan berilgan), yuridik manzili (Korxonalarining ro'yxatdan o'tgan rasmiy manzili: viloyat, tuman, ko'cha va uy raqami (masalan: Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Mustaqillik ko'chasi, 20)), faoliyat turi (korxonalarining asosiy faoliyat yo'nalishi (masalan: qurilish, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqalar), ishchilar soni (Korxonalarida ishlovchi jami xodimlar soni. Bu ko'rsatkich orqali tashkilot hajmi va mehnat muhofazasi bo'yicha ehtiyojlar aniqlanishi mumkin),

mas'ul shaxslar (Mehnat muhofazasi uchun javobgar xodimlar haqida ma'lumot: ism-familiyasi, lavozimi va aloqa ma'lumotlari (masalan: B. Karimov Inspektor, +998901234567) va qo'shimcha hujjatlar yoki fayllar (korxonada tomonidan yuklangan mehnat muhofazasi bo'yicha hujjatlar: xavfsizlik ko'rsatmalari, reja-jadvallar, sertifikatlar va b. fayllar) kabi ma'lumotlarni ko'rish imkonini beradi.

5-rasmda 4.2 modul qismida "Xodimlar" degan tugmani bosish orqali, 7-rasmda aks ettirilgan oynaga o'tiladi. Mehnat muhofazasini nazorat qilishga mo'ljallangan bu modulda ishlab chiqilgan mobil ilova interfeysi korxonalarda mehnat muhofazasi talablarini bajarilishini nazorat qilish, xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini ko'rish, jarimalarni rasmiylashtirish va ularning muddatlarini boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi. Interfeys quyidagi asosiy bloklardan iborat.

